



OLTIN O'RDA VA TEMURIYLAR TO'QNASHUVIDA XORAZMNING STRATEGIK AHAMIYATI

Xudayberganova Nozima

Ma'mun Universiteti Tarix yo'nalishi magistranti <https://orcid.org/0009-0001-5429-4484>

Annostatsiya: Ushbu maqolada Oltin O'rda va Temuriylar kabi ikki buyuk saltanatlar uchun muhim hudud hisoblangan Xorazmni tutgan o'rnini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda Xorazmning mintaqa ahamiyatidagi siyosiy o'rni yoritiladi. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Xorazmning geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Oltin O'rda, Amir Temur, Xorazm, So'fiylar, Xiva, Kat, To'xtamishxon.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу роли Хорезма, который являлся важным регионом для двух великих империй - Золотой Орды и Тимуридов. В исследовании освещается политическое значение Хорезма в региональном контексте. Анализ проводится на основе археологических находок, письменных источников и современных научных исследований. Также показано геополитическое и экономическое значение Хорезма.

Ключевые слова: Золотая Орда, Амир Тему́р, Хорезм, Суфиды, Хива, Кат, Тохтамыш.

Annotation: This article is dedicated to analyzing the role of Khorezm, a region of great importance to two major empires - the Golden Horde and the Timurids. The study highlights the political significance of Khorezm within the regional context. The analysis is based on archaeological findings, written sources, and modern scientific research. The geopolitical and economic importance of Khorezm is also demonstrated.

Keywords: Golden Horde, Amir Temur, Khorezm, Sufids, Khiva, Kat, Tokhtamysh.

KIRISH

XIV-XV asrlarda Xorazm madaniyati tarixi ichki va tashqi siyosiy voqealarga bog'liq tarzda kechgan. XIV asrning 70-80-yillariga kelib, Amir Temur Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat barpo qilishi uning manfaatlarining Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan to'qnashishi muqarrar edi. Bu kelishmovchilikning markazida Xorazm masalasi turar edi. Xorazm tarixan ikki qismga: Shimoliy (Urganch markazi bilan, Oltin O'rdaga qarashli) va Janubiy (Temuriylarga qarashli) qismlarga bo'lingan edi. Xorazmning nazorat qilinishi Kaspiybo'yi va Volgabo'yi yo'nalishidagi savdo karvonlarini boshqarish imkonini berardi. Xorazmning Amir Temur davlati tarkibiga qo'shib olinishi ham tashqi siyosiy g'alabalar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. O'tgan davrlar mobaynida nafaqat chekka viloyatlar va elatlar tarixi bo'yicha ham chuqur obyektiv tadqiqotlar olib borilmagan edi. Amir Temur va temuriylarning



Xorazmdagi siyosatini anglash uchun shu davrdagi tarixga nazar tashlash kerak. Lekin bunda tarixiy haqiqat mukammal o'rganilishi shart.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yozishda tarixiy tizimli uslub, davrlashtirish metodi, nazariy tahlil, manbashunoslik uslublardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bizga ma'lumki, Chingizxon 1224-yili o'zi bosib o'lkalarni farzandlariga bo'lib berganda Xorazm vohasining markaziy va shimoliy qismlarini Jo'ji ulusi tarkibiga, janubiy qismini esa Chig'atoy ulusi tarkibiga kiritgan edi. Keyinchalik, aniqrog'i XIV asrning o'rtalariga kelib, Jo'ji va Chig'atoy uluslarida markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalangan qo'ng'irot qabilasining sardorlaridan bo'lgan Husayn So'fi Xorazmda hokimiyatni qo'lga oladi.

Tarixchi olim B.Ahmedovning muarrix Natanziyga tayanib ma'lumot berishicha Husayn So'fi Jo'ji ulusining nufuzli amirlaridan Nongadoyning o'g'li bo'lgan. (Sharofuddin Ali Yazdiy Husayn So'fi To'ngdayning o'g'li ekanligini ta'kidlaydi¹. Shomiy esa bu ismni Nangqudoy deb beradi. Bu hol bir ismning turlicha aytilishi bo'lishi mumkin). U esa O'zbekxon nomidan Xorazmni boshqargan Qutlug'Temur avlodidan edi. 1355-56-yillarda Qutlug'Temur o'ldirilgan Xorazmda hokimiyat Nongadoy qo'lga o'tgan². Nongadoy esa 1361-yili Oltin O'rda xoni Keldibek tomonidan o'ldirilgan. Lekin Jo'ji ulusidagi porakandalik Nongadoyning o'g'li Husayn so'fi tomonidan Xorazmda hokimiyatni egallab olinishiga va mustaqil davlat tashkil topishiga qarshilik qila olmagan.

Chig'atoy ulusidagi o'zaro urushlar, Mo'g'uliston hukmdorlarining Movarounnahrda bosqinchilik yurishlaridan oqilona foydalangan Husayn So'fi 1365-1366-yillarda Janubiy Xorazmni ham o'z qo'lga kiritgan. Bu voqeani Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiy ham Amir Temurning Xorazmga birinchi marta elchi yuborishidan (1371-yil) 5-6-yil avval bo'lganligini ta'kidlashgan.

Shu bilan bir qatorda qadimshunos olim M.E.Masson Xorazmda Oltin O'rda xonlaridan yarim mustaqil Qo'ng'irot So'filarining taxtga kelishi bilan bog'laydi³. Keyin uning fikrini rossiyalik tangashunos va qadimshunoslar G.A.Fedorov-Davidov⁴ va B.I.Vaynberglar ham tasdiqlaydilar⁵. Ular ham bu sulola vakillarini "yarim mustaqil" noiblar (podsho) qatoriga qo'shadilar. Amir Temur 1371-yili Janubiy Xorazm ya'ni Xiva va Kat shaharlarini Chig'atoy ulusiga qaytarilishini so'rab Alfa Tavochi Xorazmga elchi qilib yuboradi. Bu haqida Sharofuddin Ali Yazdiy quyidagicha hikoya qiladi: Alfa Tavochini bir jamoat kishi bilan elchilikka Husayn So'fiyga yibardi va dedikim: Xeva (va Kot) zakoti Chigatoy ulusig'a taalluq, turur va eyasi yo'k, jihatidin sen olur erding. Daxl qilmag'aysen va bizga taalluq kishiga tobshurg'aysenkim, Do'stluq aromizda

¹ Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari хотирасида / Б.Ахмедовнинг илмий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.

² Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Sh.Yazdiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 119 b.

³ Массон М.Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ. 1929. Вып 18. – № 7. – С.53-68. 46

⁴ Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и Эпиграфика. Том IV. – М., 1965. – С. 219.

⁵ Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960. – С. 104-114.



bo'lgay. Alfa Tavochi Xorazmg'a borib, hazrat sohibqiron aytqon so'zlarni anga aytti va anga ko'b mubolag'a qildikim: Albatta bu ishda daxl qilmag'aysen. Ammo

Husayi So'fiy necha mahal ermishkim, o'z murodi bila hukumat surub, har na xotiri tilagandur, andoq kilib turur va hech kishi anga moni' bo'lmay turur. Bu jihattin yaxshi javob bermadi va dedikim: Men bu viloyatni kilich bila olibmen, yana qilich bila mendin olg'aylar.⁶ Ushbu elchilik almashinuvlari bir necha bor bo'ladi lekin har safar elchilarni zindonga tashlatadi Husayn So'fi bu esa ikki tomonda munosabatlar buzilishiga olib keladi. Shundan keyin Amir Temur Xorazmg'a 1372-1388 yillar oralig'ida besh marta yurish qiladi. Shu o'rinda aytishimiz zarurki, Xorazmning Amir Temur davlati tarkibiga kirishi Oltin O'rda davlati manfaatlariga ham zid edi. Amir Temur Oltin O'rda davlati bilan muxolifatda bo'lib O'trorda turgan paytda Yusuf So'fining Buxoroga hujumi tasodifiy bo'lmay, garchi manbalarda bu haqda ma'lumot bo'lmasa-da, Oltin O'rda va Xorazm hukmdorlarining o'zaro kelishuvlari natijasi bo'lsa kerak. Chunki, bundan har ikkisi ham manfaatdor edi. Amir Temur yordami bilan dastlab Oltin O'rda, keyinchalik butun Jo'chi ulusi hukmdoriga aylangan To'xtamish ham aynan shu siyosatni davom ettirganligi ham shunga dalildir. To'xtamishxon Xorazmni Oltin O'rdaga tegishli deb bilib, V.V. Bartold va A.Y. Yakubovskiyar ta'kidlaganidek, 1383-yil bu yerda o'z nomidan tanga zarb qildirgan edi. Xorazm To'xtamishxon uchun Amir Temurning ham markazlashtirilgan davlat tuzish, ham Eronni istilo qilish yo'lidagi harakatlariga halaqit berishi mumkin bo'lgan qulay hudud edi. Bu haqda Yakubovskiy shunday fikr bildiradi: Sulaymon So'fi qat'iy ravishda To'xtamishxon tarafiga o'tdi.

Temur bo'lib o'tgan voqealarni hisobga olib, shuni yaxshi angladiki, To'xtamish faqatgina uning Eronga nisbatan bosqinchilik niyatlariga jiddiy xavf tug'diribgina qolmasdan, balki Movarounnahrni birlashtirish ishiga ham tahdid solmoqda edi. Shuning uchun ham u To'xtamishga qarshi hal qiluvchi harakatlarni boshlash vaqti to'la etildi, deb hisobladi. Temurning bu yo'nalishdagi birinchi qadami Xorazmg'a

qisqa muddatli beshinchi yurishi bo'lib, xorazmliklar va ularning shohi Sulaymon So'fini xiyonatlari uchun jazolash niyatida amalga oshirilgan edi.⁷ Haqiqatdan ham Xorazmg'a qarshi amalga oshirilgan so'nggi hal qiluvchi beshinchi yurish Sulaymon So'fining Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, Mo'g'uliston hukmdori Anqoto'ralar bilan hamkorlikda Movarounnahrqa qilingan bosqinchilik harakatlariga adolatli javob edi. Garchi Xorazm qo'shinlarining Movarounnahrqa bostirib kirganligi manbalarda ma'lumot bo'lmasa-da, To'xtamish qo'shinlarining bir qismi Xorazm orqali Buxoroga bostirib kirganligini Sharofuddin Ali Yazdiyning Zafarnomasida bu haqida ma'lumotlar keltirilgan. V.V. Bartoldning fikricha Xorazmning Oltin O'rdadan tortib olinishi To'xtamishxon davlatining iqtisodiy tizimiga berilgan kuchli zarba bo'ldi. Urganchsiz Oltin O'rda o'zining tranzit davlat sifatidagimavqeini yo'qotdi, bu esa keyinchalik markaziy hokimiyatining zaiflashiga va ulushning parchalanishiga sabab bo'ldi.⁸

⁶ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Sh. Yazdiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 72 b.

⁷ Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 334.

⁸ Бартолд В.В. Сочинения, Т.2, Ч.1. – М.:Издательство восточной литературы,



NATIJALAR. Tadqiqot natijasida Xorazmning strategik ahamiyati ko'plab ustuvor yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, Xorazm Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'ini nazorat qilgan. Bu yo'nalish Oltin O'rda xazinasi uchun asosiy bojxona tushumlarini ta'minlagan. Ikkinchidan, Xorazm Oltin O'rdaning Movarounnahrğa bostirib kirishi uchun "darvoza" vazifasini bajarganligini ko'rishimiz mumkin. Garchi Xorazm qo'shinlarining Movarounnahrğa bostirib kirganligi manbalarda ma'lumot bo'lmasa-da, To'xtamish qo'shinlarining bir qismi Xorazm orqali Buxoroga bostirib kirganligini Sharofuddin Ali Yazdiyning Zafarnomasida bu haqida ma'lumotlar keltirilgan. Amir Temur uchun Xorazm hududini Temuriylarga qo'shib olinishi muhim ahamiyatiga ega edi. Lekin Xorazmga yurishi Oltin O'rda munosabatlarning buzilishiga olib keldi. V.V. Bartold va A.Y. Yakubovskiy ta'kidlaganidek, 1383-yil bu yerda o'z nomidan tanga zarb qildirgan edi. Xorazm To'xtamishxon uchun Amir Temurning ham markazlashtirilgan davlat tuzish, ham Eronni istilo qilish yo'lidagi harakatlariga halaqit berishi mumkin bo'lgan qulay hudud edi.

MUHOKAMA. Tarixshunoslik bilan solishtirish natijasida B.D. Grekov va A.Yu. Yakubovskiyning "Oltin O'rda va uning qulashi" ("Золотая Орда и её падение") asarida Xorazmni Oltin O'rda tarkibidagi muhim iqtisodiy strategik ahamiyatga ega inqirozli hudud sifatida talqin qilishiga qisman zid keladi. Yuqoridagi olimlar Xorazmning Temuriylar uchun ahamiyatini yetarlicha yoritilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Aksincha, V.V. Bartoldning "Sochineniya"sidagi Xorazmga oid tadqiqotlari ayniqsa, uning Amudaryo etaklari va savdo yo'llari tahlili mazkur hududning ikki davlat o'rtasidagi munosabatlardagi markaziy rolini aniq ko'rsatadi. Bartold Xorazmni "Turkistonning darvozasi" deb atagan bo'lsa, bu to'qnashuvlar shuni amalda isbotladi.

Numizmatik va arxeologik dalillarga qarasak, M.Ye. Masson va Ye.A. Davidovichning numizmatik tadqiqotlari Xorazmda XIV asr oxirida pul muomalasining ikki yo'nalishda Oltin O'rda va Temuriylar tangalari ayni bir vaqtda muomalada bo'lganligini aniqlagan. Davidovichning Xorazm numizmatikaga oid asarlarida aynan To'xtamish va Amir Temur tangalarining bir hududda uchrashi bu yerda ikki hokimiyatning raqobatli hamkorligi mavjud bo'lganligi ko'rish mumkin. Shu bilan birga, L.I. Vaynbergning "Qo'ng'iroq sofi" va Xorazm arxeologiyasiga oid ishlari (masalan, "История Кунграт-Софи") XIV asr oxirida Xorazm shaharlarida mudofaa inshootlarining jadal qurilganligini ko'rsatadi. Bu Vaynberg fikricha, ikki yirik davlat o'rtasidagi bosim natijasida yuzaga kelgan degan fikrni ilgari surgan. Chunki aynan shu davrda mudofa jihatdan mustahkamligini ko'rish mumkin. Bu holat Xorazmning balki bosim ostidagi markaz ekanligini isbotlaydi.

"Zafarnoma"larning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, Yazdiy va Shomiy Amir Temurning Xorazm yurishlarini "Islom himoyasi" va "yo'l xavfsizligi" shiori ostida olib borilgan deb hisoblashadi. Oltin O'rda manbalarida esa Grekov-Yakubovskiy ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Xorazm "Chingiziy meros" va "ulus tarkibi" sifatida qaralgan.



Bu qarama-qarshilik ikki davlat o'rtasidagi to'qnashuvni geosiyosiy raqobatdan mafkuraviy to'qnashuv darajasiga ko'targan deya qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqot Oltin O'rda va Temuriylar to'nashuvida Xorazmning strategik ahamiyatini turli yo'nalishda ya'ni iqtisodiy, siyosiy va harbiy strategik tahlil qilingan. Xorazm, ayniqsa uning poytaxti Urganch va muhim ahamiyatiga ega bo'lgan Xiva va Kat kabi shaharlari XIV asr oxirida ikki yirik davlat o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga olib keldi. 1370-1380-yillarda Amir Temur Xorazmga bir necha bor yurish qilib, uni vassal holatiga keltirdi. Lekin To'xtamishning 1383-yildagi birinchi yurishi va 1388-yildagi bosqini Xorazmning Jo'chi ulusi uchun naqadar muhimligini ko'rsatdi. To'xtamishning maqsadi Oltin O'rda Hindiston va Xitoy bilan savdodan keladigan daromadni saqlab qolmoqchi bo'lsa, Urganch uning nazoratda bo'lishi kerak edi.

Amir Temur uchun esa Xorazm strategik jihatdan ikki tomonlama ahamiyat kasb etgan. Birinchidan, Sirdaryo bo'ylaridagi Buxoro va Samarqandni dasht hujumlaridan himoya qilishning yagona yo'li Xorazmni nazorat qilish edi. Ikkinchidan, o'z imperiyasining shimoliy darvozasi bo'lgan Xorazmni nazorat qilmasdan turib, Markaziy Osiyoda savdoni to'liq monopollashtirish bilmas edi.

Bugungi kunda tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim hisoblanadi. Bu uchun Xorazm tarixini qadimgi savdo yo'lidagi iqtisodiy ahamiyatga ega shaharlarni, qishloqlarni nomlari, afsonalari va arxeologik belgilarni tizimli ravishda o'rganish-tarixiy haqiqatni aniqlash, madaniy merosni himoya qilish va yosh avlodga yetkazish zarur hisoblanadi. Kelgusida arxiv materiallari, arxeologik qazishmalar, etnografik tadqiqotlar va og'zaki tarixlarni yozib olish ishlari tashkil etilsa, ushbu hududlarning haqiqiy tarixi aniqroq yoritiladi va mintaqaning yirik tarixiy tasviri to'la shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б.Аҳмедовнинг илмий таҳрири остида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / Sh.Yazdiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 119 b.
3. Массон М.Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ. 1929. Вып 18. – № 7. – С.53-68. 46
4. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и Эпиграфика. Том IV. – М., 1965. – С. 219.
5. Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960. – С. 104-114.
6. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / SH.Yazdiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 72 b.



7. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 334.
8. Бартолд В.В. Сочинения, Т.2, Ч.1. – М.:Издательство восточной литературы, 1963. – С. 21-106
- 10.. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma / N. Shomiy. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 111 b.